



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

**2026-YIL / IYUN/6-SON,
V-QISM**



INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.
V-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqov *Salimov Oqil Umrzoqov*, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

KORPORATIV BOSHQARUVDA ESG TAMOYILLARINI JORIY ETISHNING IQTISODIY TAHLILI.....	12
I. R. Berdikulova	
TEKSTIL SANOATIDA SUV ISTE'MOLI VA QAYTA ISHLASH ULUSHI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK: 20 DAVLAT MISOLIDA KORRELYATSIIYA VA K-MEANS KLASTER TAHLILI.....	16
Zayniyev Diyorbek Zokir o'g'li	
Turobova Hulkar Rustamovna	
O'ZBEKISTONDA BIZNES BIRLASHUVLARINI HISOBGA OLISHNI MHXS (IFRS) 3 ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	24
Davletov Ikrom Raximberganovich	
VINOCHILIK SANOATI KORXONALARIDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR AUDITINI TASHKIL QILISH VA O'TKAZISH TARTIBI.....	33
Jo'rayev Dilshod Xudoyqulovich	
СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА УПРАВЛЕНИЯ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИМИ ПРЕДПРИЯТИЯМИ	38
Абдуллаева М.Б.	
AGROSANOAT MAJMUASIDA INTEGRATSION TUZILMALARNING ISTIQBOLLI SHAKLLARINING NAZARIY ASOSLARI.....	44
Murodov Sherzodbek Murod o'g'li	
RESPUBLIKADA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING BOZOR MEXANIZMI.....	51
Kalandarova Elnura Muzaffar qizi	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN MAHALLALARDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHGA KO'MAKLASHISH.....	55
Niyozov Zuxur Davronovich	
Yarlaqabov Faxriddin Baxodir o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОТЧЕТА О ФИНАНСОВОМ ПОЛОЖЕНИИ КОМПАНИИ В СООТВЕТСТВИИ С ТРЕБОВАНИЯМИ МСФО	58
Худойкулова Дилора Дилмуродовна	
SANOAT KORXONALARINING INVESTITSIYALARI TARKIBI VA ULARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINING IQTISODIY TAHLILI.....	64
Karimova Saodatxon Ulug'bek qizi	
XALQARO MOLIVAVIY HISOBOT STANDARTLARIGA MUVOFIQ JORIY AKTIVLARNI HISOBGA OLISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	71
Mavlyanova Dilobar Maxkamovna	
DAVLAT TOMONIDAN TURIZM SOHASINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	77
Karimova Dilafruz Sadridin qizi	
МЕТОДЫ АНАЛИЗА ЦИФРОВИЗАЦИИ В РЕГИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ.....	82
Ахмедова(Жабборова) Нилуфар Икболжон кизи	
AHOLI ZICH JOYLASHGAN HUDUDLARDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-IQTISODIY OMILLARI VA XORIJIY TAJRIBA TAHLILI	89
Bo'stonova Nilufar Abdusmatovna	
Nematjonova Risolatxon Dilshodbek qizi	
JANUBIY KOREYA TAJRIBASIDA CHIQINDILARNI BOSHQARISHDA EPR TIZIMI VA RAQAMLI YECHIMLARINING O'RNI	94
Otarbayev Zamir Zairovich	



SANOAT SALOHİYATI SAMARADORLIGINI INVESTISIYALAR ASOSIDA OSHIRISHNING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI	100
Urazaliyev Bekzod Sultanbayevich	
ЦИФРОВЫЕ НАВЫКИ КАК ФАКТОР КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ЖЕНСКИХ КАДРОВ НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ УЗБЕКИСТАНА.....	107
Дониёрова Зухрабону Алишер кизи	
TURIZM SUG'URTASI VA UNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	113
Хо'jamov Akbar Bahriddinovich	
KELAJAKDAGI GLOBAL VA MINTAQAVIY IQLIM O'ZGARISHI HAMDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH ZARURIYATI.....	118
Djumayev Askar Xaydarovich	
SAMARQAND VILOYATI UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARIDA RESURLARNI BOSHQARISH SAMARADORLIGI.....	123
Erdonov Muhammadamin Erdon o'g'li	
Qahhorova Nargiza Qahramonovna	
Rafiqjonov Damir Raxim o'g'li	
Jamilov Firdavs Otabek o'g'li	
ПУТИ РАСШИРЕНИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В УПРАВЛЕНИИ БАНКОВСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ	129
Норкулов Хабибулло	
Абдурасулова Шахзода	
Бахриддинов Дилшодбек	
NATIV BRENDING VOSITASI SIFATIDA UGC VA EGC: GLOBAL TENDENSIYALAR VA O'ZBEKISTON BOZORIGA MOSLASHUV	135
Yuldasheva Mahliyo Baxtiyor qizi	
SOLIQ TO'LOVCHILARGA XIZMAT KO'RSATISHDA RAQAMLASHTIRISH ORQALI SOLIQ MA'MURCHILIGINING SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI	138
Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich	
НАУЧНЫЕ ПОДХОДЫ И ПРИНЦИПЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЦИФРОВОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ ПРИ УПРАВЛЕНИИ БИЗНЕС-ПРОЦЕССАМИ	147
Джуманов А.А.	
BANK SEKTORIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA XARAJAT SAMARADORLIGI: XALQARO TAJRIBA ASOSIDA EKONOMETRIK BAHOLASH.....	157
Masharipova Durdona Ulug'bekovna	
РАЗВИТИЕ ИНСТРУМЕНТОВ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ПРИНЯТИЯ РЕШЕНИЙ.....	164
Джуманов А.А.	
DAVLAT XARIDLARIDA SUN'IY INTELLEKTGA ASOSLANGAN NARXLAR MODULINI JORIY ETISH: KORRUPSIYAGA QARSHI KOMPLAYENS, HISOBDORLIK VA RAQOBATNI KUCHAYTIRISH YO'NALISHLARI.....	174
Rahmanov Furqat Temirovich	
АНАЛИЗ НА ОСНОВЕ МОДЕЛИ АЛЬТМАНА ПРИ ОЦЕНКЕ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	179
Ибрагимов Гайратжон Артикович	
TIJORAT BANKLARIDA RISKLARNI BOSHQARISHNINZ ZAMONAVIY MODELLARI VA KOMPLAYENSNAZORAT TIZIMINI RIVOJLANTIRISH	186
Fayziyev Sherzod Djunaydilloyevich	
SUN'IY INTELLEKTNING MEHNAT UNUMDORLIGI VA MOBILIGIGA TA'SIRI.....	192
Shakarov Zafar Gafforovich	



URGUT ERKIN IQTISODIY ZONASIDA SANOAT TARMOQLARINI KLASTERLASH
SAMARADORLIGINING TAHLILI 198

Boboqulov Sanjar Baxronkulovich
Qurbonov Tolmasjon Namoz o'g'li
Uzoqov Rafiq O'lmas o'g'li



URGUT ERKIN IQTISODIY ZONASIDA SANOAT TARMOQLARINI KLASTERLASH SAMARADORLIGINING TAHLILI

Boboqulov Sanjar Baxronkulovich
SamISI, “Raqamli iqtisodiyot” kafedrası dotsenti, PhD
E-mail: sanjarbobokulov02@gmail.com

Qurbonov Tolmasjon Namoz o‘g‘li
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Iqtisodiyot fakulteti talabasi
E-mail: tolmasjonqurbonov06@gmail.com

Uzoqov Rafiq O‘lmas o‘g‘li
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Iqtisodiyot fakulteti talabasi
E-mail: rafiquzoqov@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Urgut erkin iqtisodiy zonasida sanoat tarmoqlarini klasterlash jarayonlari va ularning iqtisodiy samaradorligi tahlil qilingan. Tadqiqot davomida hududda faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalarini o‘rtasidagi kooperatsion aloqalar, investitsion faollik, eksport salohiyati hamda bandlikka ta’siri o‘rganildi. Shuningdek, Urgut erkin iqtisodiy zonasida klasterlash tizimini rivojlantirishda uchrayotgan ayrim omillar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: Urgut erkin iqtisodiy zonasi, sanoat klasteri, klasterlash, sanoat tarmoqlari, investitsiyalar, eksport salohiyati, ishlab chiqarish samaradorligi, kooperatsiya aloqalari, innovatsiyalar, raqobatbardoshlik, hududiy rivojlanish, erkin iqtisodiy zonalar.

Abstract. This article analyzes the processes of industrial clustering and their economic efficiency in the Urgut Free Economic Zone. The study examines cooperative relationships among industrial enterprises operating in the region, investment activity, export potential, and their impact on employment. Furthermore, the research identifies the main challenges hindering the development of the clustering system in the Urgut Free Economic Zone and proposes scientific and practical recommendations for overcoming these obstacles.

Keywords: Urgut Free Economic Zone, industrial cluster, clustering, industrial sectors, investments, export potential, production efficiency, cooperative relations, innovations, competitiveness, regional development, free economic zones.

Аннотация. В данной статье проанализированы процессы кластеризации промышленных отраслей и их экономическая эффективность в свободной экономической зоне «Ургут». В ходе исследования были изучены кооперационные связи между промышленными предприятиями, функционирующими на данной территории, инвестиционная активность, экспортный потенциал и их влияние на уровень занятости населения. Кроме того, выявлены основные проблемы, препятствующие развитию системы кластеризации в свободной экономической зоне «Ургут», и разработаны научно-практические рекомендации по их устранению.

Ключевые слова: свободная экономическая зона «Ургут», промышленный кластер, кластеризация, отрасли промышленности, инвестиции, экспортный потенциал, эффективность производства, кооперационные связи, инновации, конкурентоспособность, региональное развитие, свободные экономические зоны.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida sanoat tarmoqlarini klasterlash ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, korxonalar o‘rtasida kooperatsion aloqalarni kuchaytirish va innovatsiyalarni tezkor joriy etishga xizmat qiladi. Shu sababli mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida erkin iqtisodiy zonalar muhim o‘rin egallaydi. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish, investitsiyalarni faol jalb etish va eksport hajmini oshirish



maqsadida bir qator erkin iqtisodiy zonalar tashkil etildi. Shular qatorida Urgut erkin iqtisodiy zonasi hududning sanoat salohiyatini oshirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Samarqand viloyatida tashkil etilgan Urgut erkin iqtisodiy zonasi hududning sanoat va investitsiya salohiyatini rivojlantirishga xizmat qilayotgan muhim iqtisodiy hududlardan biri hisoblanadi. Mazkur zona O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qarorlari asosida tashkil etilgan bo'lib, xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb qilish, zamonaviy sanoat korxonalarini barpo etish hamda eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirishga qaratilgan. Hududda elektrotexnika, to'qimachilik, oziq-ovqat, farmatsevtika, qurilish materiallari va kimyo sanoati yo'nalishlarida faoliyat yuritayotgan korxonalar uchun qulay infratuzilma va imtiyozlar yaratilgan. Natijada Urgut erkin iqtisodiy zonasi nafaqat Samarqand viloyatining sanoat ishlab chiqarish hajmini oshirishga, balki yangi ish o'rinlari yaratish, eksport salohiyatini kengaytirish va hududning raqobatbardoshligini mustahkamlashga ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu jihatdan mazkur zonada sanoat tarmoqlarini klasterlash jarayonlarini rivojlantirish va ularning samaradorligini oshirish masalasi dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Klasterlashning mohiyatini yoritish va sanoat tarmoqlarini klasterlash orqali samaradorligini oshirishga oid ko'plab xorijiy va mahalliy olimlarning tadqiqotlari o'rganildi. Xususan, C. Stan va A. Luiz "Identification of industrial clusters and complexes: a comparison of methods and findings" [1] nomli maqolada sanoat klasterlari va komplekslarni tovarlar va xizmatlar oqimlari bilan bog'langan sanoat tarmoqlari guruhlarini aniqlash hamda sezilarli darajada o'zaro joylashuv jozibadorligini ko'rsatadigan tadqiqotlar tizimli ravishda ko'rib chiqilgan. Shu bilan birga, xitoylik olimlar K. Haewon, H. Seung-June va Y. Woojin "Industry cluster, organizational diversity, and innovation" [2] nomli maqolada sanoat klasterlarining innovatsion ko'rsatkichlari klasterdagi tashkilotlarning xilma-xilligi darajasiga qarab o'zgarishi va ularning tarmoq xususiyatlari tashkiliy xilma-xillikning ijobiy ta'sirini kuchaytirishi mumkinligini aniqlashga qaratilgan.

Meghamrita Chakraborty "Industrial clustering and location in India: Sectoral patterns of investments and employments" [3] nomli maqolasida Hindiston sanoat o'sishi va mintaqaviy taraqqiyotni tahlil qilgan. Olim Hindiston sanoatining hududiy taqsimoti va inklyuziv rivojlanish jihatlarini tahlil qilgan holda sanoatni klasterlash g'oyasini ilgari suradi.

Mahalliy olimlarimiz tomonidan "Klasterlar — bu bilim, ko'nikma, kirish, talab va boshqa bog'liqliklar bilan bog'liq bo'lgan sanoat tarmoqlarining geografik konsentratsiyalari. Tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash, mintaqalar bo'yicha klasterlarni taqqoslashni osonlashtirish va mintaqaviy strategiyalarni belgilashda siyosatchilarni qo'llab-quvvatlash uchun klasterga asoslangan ma'lumotlarga ehtiyoj ortib bormoqda" [4], "Klaster — muayyan yo'nalishda bir-birini to'ldiradigan va o'zaro bog'langan ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatishning bir joyda jam bo'lishi" [5] deb e'tirof etilgan.

"Erkin iqtisodiy zona — bu muayyan hududda maxsus soliq, bojxona va valyuta imtiyozlari joriy etilgan iqtisodiy makondir. EIZlarning asosiy maqsadi investitsiyalarni jalb qilish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirishdan iborat. EIZlar orqali eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqariladi; sanoat salohiyati oshiriladi; yangi ish o'rinlari yaratiladi" [6].

D. F. Ziyayevaning "Sanoat klasterlarining faoliyat sohasini tartibga solish mexanizmlari" [7] nomli maqolasida sanoat klasterlari faoliyatini tartibga solish mexanizmlari, afzalliklari va kamchiliklari tahlil qilingan bo'lsa, S. U. Karimovning "Erkin iqtisodiy zonalar, texnoparklar va kichik sanoat zonalar samaradorligini oshirish (Urgut erkin iqtisodiy zonasi misolida)" [8] nomli maqolasida Urgut EIZ samaradorligini investitsiya samaradorligi, bandlikni yaratish, eksportni kengaytirish, innovatsiya va texnologiyalar transferi, mintaqaviy rivojlanish kabi ko'rsatkichlar orqali baholagan. Biroq ushbu ko'rsatkichlar sifat ko'rsatkichlari hisoblanib, tadqiqotda statistik ko'rsatkichlar yetarli darajada keng yoritilmagan.

A. A. Sobirov "Sanoat klasterlari — sanoat salohiyatini oshirishning strategik yo'nalishi sifatida" [9] nomli maqolada sanoat klasterlarini shakllantirish va rivojlantirish orqali iqtisodiyotda sanoat salohiyatini oshirishning strategik yo'nalishlari tahlil qilingan bo'lsa, Sh. Sulaymonov va S. Isroilovalarning "Urgut tumani iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida erkin iqtisodiy zonasining ahamiyati" [10] nomli maqolasida esa Urgut tumani ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishi uchun asosiy omil hisoblangan erkin iqtisodiy zonalar, ularning jozibadorligi va yuqori texnologiyali yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish, hududlarni raqobatdosh va eksportga yo'naltirilgan zamonaviy sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni o'zlashtirishga yanada faol jalb qilish, ishlab chiqarish, muhandislik-kommunikatsiya, yo'l-transport, ijtimoiy infratuzilma va logistika xizmatlarini jadal rivojlantirishni ta'minlash masalalari yoritib berilgan.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda Urgut erkin iqtisodiy zonasida sanoat tarmoqlarini klasterlash jarayonlari va ularning iqtisodiy samaradorligini o'rganishda tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, statistik tahlil hamda umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Tadqiqot davomida Urgut EIzda faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalarining investitsion faolligi, eksport salohiyati, ishlab chiqarish kooperatsiyasi va bandlikka ta'siri tahlil qilindi. Shuningdek, sanoat klasterlarining hududiy rivojlanishga ta'sirini baholashda mavjud ilmiy adabiyotlar, statistik ko'rsatkichlar va amaliy ma'lumotlar asosida xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Urgut erkin iqtisodiy zonasi Samarqand viloyatining sanoat va tadbirkorlik salohiyati yuqori hududlaridan biri hisoblanadi. Mazkur hududda qurilish materiallari, elektrotexnika, oziq-ovqat, farmatsevtika, to'qimachilik va boshqa ishlab chiqarish yo'nalishlarida faoliyat yurituvchi korxonalar jamlangan. Urgut erkin iqtisodiy zonasida sanoat tarmoqlarini klasterlash jarayoni hududning mavjud ishlab chiqarish salohiyati va resurs bazasidan samarali foydalanishga qaratilgan. Mazkur hududda elektrotexnika, qurilish materiallari, oziq-ovqat mahsulotlari va yengil sanoat yo'nalishlarida faoliyat yuritayotgan korxonalar o'rtasida ishlab chiqarish zanjirlarini shakllantirish orqali qo'shilgan qiymat yaratish darajasi oshirilmoqda. Masalan, qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar mahalliy xomashyo resurslaridan foydalanib, tayyor mahsulot ishlab chiqarish bosqichlarini bir hududda jamlash imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Bu esa transport xarajatlarini kamaytirish va mahsulot tannarxini pasaytirishga xizmat qilmoqda.

Elektrotexnika sanoatida klasterlash korxonalar o'rtasida butlovchi qismlar, yarim tayyor mahsulotlar va texnologik xizmatlar almashinuvini kuchaytirgan. Natijada ilgari import hisobidan qoplanib kelgan ayrim ehtiyot qismlar mahalliy korxonalar tomonidan ishlab chiqarilmoqda. Shu bilan birga, ishlab chiqarishning alohida bosqichlarini turli korxonalar o'rtasida taqsimlash mehnat unumdorligini oshirishga va mahsulot sifatini yaxshilashga imkon bermoqda.

Urgut erkin iqtisodiy zonasida klasterlashning yana bir muhim jihati sanoat korxonalari, logistika markazlari va xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarning mustahkamlanishidir. Hududda shakllanayotgan ishlab chiqarish kooperatsiyasi korxonalarining tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirib, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish hajmining ortishiga zamin yaratmoqda. Natijada klasterlash nafaqat alohida korxonalar samaradorligini, balki butun erkin iqtisodiy zonaning investitsion jozibadorligi va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Urgut erkin iqtisodiy zonasida klasterlash tizimi rivojlanayotgan bo'lsa-da, ayrim muammolar mavjud. Jumladan, korxonalar o'rtasidagi kooperatsiya aloqalarining yetarli darajada shakllanmaganligi, innovatsion texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini yanada kengaytirish zarurati hamda malakali mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojning yuqoriligi klaster samaradorligini to'liq namoyon etishga to'sqinlik qilmoqda.

Bundan tashqari, ayrim korxonalarda eksport faoliyatini rivojlantirish bo'yicha marketing strategiyalarini yanada takomillashtirish zarurati hamda xalqaro sertifikatlashtirish tizimlariga integratsiyalashuv darajasining yetarli emasligi mavjud muammolar qatoriga kiradi.

Zona tashkil etilganidan buyon xorijiy va mahalliy investitsiyalar hajmi sezilarli darajada oshib, yangi ishlab chiqarish quvvatlari ishga tushirildi. Natijada hududda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, eksport ko'rsatkichlari va bandlik darajasi yuqorilab bormoqda. Bunda klasterlash mexanizmi korxonalar o'rtasida uzviy iqtisodiy aloqalarni shakllantirishga xizmat qilmoqda.

1-jadval.

Urgut erkin iqtisodiy zonasiga kiritilgan investitsiyalar hajmi¹

Ko'rsatkichlar	2024-yil	2025-yil
Xorijiy investitsiyalar hajmi	92,5	108,7
Mahalliy investitsiyalar hajmi	58,3	67,9
Jami investitsiyalar	150,8	176,6

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilda Urgut erkin iqtisodiy zonasiga kiritilgan jami investitsiyalar hajmi 176,6 mln AQSh dollarini tashkil etib, 2024-yilga nisbatan 25,8 mln dollarga yoki 17,1 foizga oshgan. Ushbu o'sishda xorijiy investitsiyalarning ulushi yuqori bo'lib, ular 92,5 mln dollardan 108,7 mln dollarga yetgan. Mahalliy

1 Manba: «Urgut» erkin iqtisodiy zonasi hududida 313 million dollarlik investitsion loyihalar amalga oshiriladi <https://yuz.uz/index.php/uz/news/urgut-erkin-iqtisodiy-zonasi-hududida-313-million-dollarlik-investitsion-loyihalar-amalga-oshiriladi> asosida muallif ishlanmasi



investitsiyalar hajmi ham ijobiy dinamikani namoyon etib, 58,3 mln dollardan 67,9 mln dollarga oshgan. Bu esa erkin iqtisodiy zonada investorlar uchun yaratilgan qulay biznes muhiti, infratuzilmaning rivojlanishi hamda sanoat loyihalarining kengayishi natijasida investitsion faollik ortib borayotganligini ko'rsatadi.


Klasterlash bir-biri bilan texnologik va iqtisodiy jihatdan bog'liq bo'lgan korxonalarni yagona tizimga birlashtirish orqali ularning faoliyat samaradorligini oshirishga qaratilgan. Urgut erkin iqtisodiy zonasida klasterlashning asosiy afzalliklari quyidagilarda namoyon bo'lmoqda:

Birinchidan, ishlab chiqarish xarajatlari qisqarmoqda. Korxonalar xomashyo, logistika va infratuzilmadan birgalikda foydalanishi natijasida mahsulot tannarxi kamaymoqda. Bu esa ichki va tashqi bozorlarda mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirmoqda.

Ikkinchidan, innovatsion faoliyat rivojlanmoqda. Klaster ishtirokchilari o'rtasida bilim va tajriba almashinuvi kuchayib, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlari kengaymoqda. Natijada mahsulot sifati yaxshilanib, ishlab chiqarish unumdorligi ortmoqda.

Uchinchidan, eksport salohiyati oshmoqda. Klaster tarkibidagi korxonalar mahsulot ishlab chiqarishning to'liq zanjirini shakllantirish orqali xalqaro standartlarga mos mahsulotlar ishlab chiqarmoqda. Bu esa eksport geografiyasining kengayishiga xizmat qilmoqda.

To'rtinchidan, yangi ish o'rinlari yaratilmoqda. Sanoat korxonalari sonining ortishi va ishlab chiqarish hajmlarining kengayishi aholi bandligini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.



1-rasm. Urgut EIZ — Sanoat klasterlari samaradorligi²

2 Manba: <https://ufe.z.uz/> asosida muallif ishlanmasi



1-rasm ma'lumotlaridan ko'rinadiki, Urgut erkin iqtisodiy zonasida sanoat tarmoqlarini klasterlash tizimi bir nechta o'zaro bog'liq yo'nalishlar asosida shakllantirilgan. Tekstil klasteri hududdagi eng yirik tarmoq bo'lib, 12 ta korxonani birlashtirgan va 2445 ta ish o'ri yaratgan. Ushbu klaster eksport ulushi bo'yicha ham yetakchilik qilib, jami eksportning 38 foizini ta'minlamoqda. Oziq-ovqat klasterida 9 ta korxonalar faoliyat yuritib, 1267 ta ish o'ri yaratilgan bo'lsa, eksport ulushi 27 foizni tashkil etadi. Kimyo klasteri esa 6 ta korxonani qamrab olgan holda 934 ta ish o'ri yaratgan va eksportdagi ulushi 18 foizga teng. Mazkur ko'rsatkichlar Urgut EIZda tekstil sanoati klasterlash jarayonining eng rivojlangan va iqtisodiy jihatdan samarali yo'nalish ekanligini, oziq-ovqat hamda kimyo klasterlari esa hudud iqtisodiyotining diversifikatsiyasini ta'minlayotganini ko'rsatadi.

Rasmda aks ettirilgan samaradorlik ko'rsatkichlari klasterlash mexanizmining hudud iqtisodiyotiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatayotganini tasdiqlaydi. Xususan, klasterlar faoliyati natijasida yalpi ichki mahsulotga qo'shilayotgan hissa 18 foizga oshgan, eksport hajmi esa yillik hisobda 24 foizga ko'paygan. Shuningdek, 15 307 nafar aholi uchun yangi ish o'rinlari yaratilgani hududda bandlik darajasining yaxshilanishiga xizmat qilgan. Klasterlar doirasida 176,6 mln AQSh dollari miqdoridagi investitsiyalarning jalb etilishi ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish va yangi loyihalarni amalga oshirish imkonini bergan. Natijada xarajatlarni tejash, resurslardan samarali foydalanish, innovatsion faoliyatni rivojlantirish hamda korxonalar o'rtasidagi kooperatsiya aloqalarini mustahkamlash orqali Urgut erkin iqtisodiy zonasining raqobatbardoshligi va eksport salohiyati sezilarli darajada oshgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, Urgut erkin iqtisodiy zonasida sanoat tarmoqlarini klasterlash hududning sanoat salohiyatini oshirish, korxonalar o'rtasidagi kooperatsiya aloqalarini mustahkamlash va ishlab chiqarish samaradorligini yuksaltirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Klasterlash mexanizmi orqali korxonalar xomashyo, logistika va infratuzilma resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatiga ega bo'lib, bu mahsulot tannaxsining pasayishi va raqobatbardoshlikning oshishiga xizmat qilmoqda. Tadqiqot davomida Urgut EIZda tekstil, oziq-ovqat va kimyo sanoati yo'nalishlarida shakllangan klasterlarning hudud iqtisodiyotiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatayotgani aniqlandi.

Shuningdek, klasterlash natijasida investitsiyalar hajmi, eksport ko'rsatkichlari va aholi bandlik darajasida barqaror o'sish kuzatilayotgani tahlillar orqali asoslandi. Biroq korxonalar o'rtasidagi kooperatsiya aloqalarining yetarli darajada rivojlanmaganligi, innovatsion texnologiyalarni joriy etish sur'atlarini jadallashtirish zarurati hamda malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyoj klasterlar samaradorligini oshirishni talab qiluvchi muhim omillar sifatida baholandi. Shu bois kelgusida ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish, texnologiyalar transferini jadallashtirish, eksport infratuzilmasini takomillashtirish va klaster ishtirokchilari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish Urgut erkin iqtisodiy zonasining investitsion jozibadorligi hamda xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini yanada oshirishga xizmat qiladi. Natijada sanoat tarmoqlarini klasterlash hududning barqaror iqtisodiy rivojlanishi va eksportga yo'naltirilgan sanoat ishlab chiqarishini kengaytirishning samarali mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi.

Yuqoridagi tahlil asosida quyidagi takliflarni ilgari suramiz:

Birinchidan, Urgut erkin iqtisodiy zonasida sanoat korxonalarini o'rtasidagi kooperatsiya aloqalarini kengaytirish maqsadida yagona raqamli klaster platformasini joriy etish orqali korxonalar xomashyo ta'minoti, ishlab chiqarish quvvatlari, logistika xizmatlari va tayyor mahsulotlar bo'yicha o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yishi mumkin.

Ikkinchidan, klasterlar faoliyatida innovatsion texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish hamda ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlikni kuchaytirish mahsulot sifatini oshirish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ulushini ko'paytirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, eksport salohiyatini oshirish maqsadida klaster korxonalarini xalqaro sertifikatlashtirish tizimlariga jalb etish va ularning tashqi bozorlardagi marketing faoliyatini qo'llab-quvvatlash natijasida Urgut EIZda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligi oshib, eksport geografiyasi kengayadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Czamanski, S., Ablas, L. A. de Q. Identification of industrial clusters and complexes: a comparison of methods and findings. *Urban Studies*, 1979, Vol. 16, Issue 1, pp. 61–80. <https://journals.sagepub.com/doi/abs/10.1080/713702464>
2. Kim, H., Hwang, S.-J., Yoon, W. Industry cluster, organizational diversity, and innovation. *International Journal of Innovation Studies*, 2023, Vol. 7, Issue 3, pp. 187–195. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S2096248723000097>



3. Chakraborty, M. Industrial clustering and location in India: Sectoral patterns of investments and employments. *Regional Science Policy & Practice*, 2024, Vol. 16, Issue 6, Article 100041. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1757780224000763>
4. Delgado, M., Porter, M. E., Stern, S. Defining clusters of related industries. *Journal of Economic Geography*, 2016, Vol. 16, Issue 1, pp. 1–38. <https://doi.org/10.1093/jeg/lbv017>
5. Shavqiyev, E. *Sanoat iqtisodiyoti: o'quv qo'llanma*. Samarqand: SamISI, "STEP-SEL" MChJ nashriyot-matbaa bo'limi, 2022. 415 b.
6. Mamadiyev, E., Sharipov, K. A. Erkin iqtisodiy zonalarni klaster asosida rivojlantirish. *Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot*, 2025, Vol. 3, No. 12. <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/8383>
7. Ziyayeva, D. F. Sanoat klasterlarining faoliyat sohasini tartibga solish mexanizmlari. *Raqamli iqtisodiyot*, 2025. <https://cyberleninka.ru/article/n/sanoat-klasterlarining-faoliyat-sohasini-tartibga-solish-mexanizmlari>
8. Karimov, S. U. Erkin iqtisodiy zonalar, texnoparklar va kichik sanoat zonalarini samaradorligini oshirish: Urgut erkin iqtisodiy zonasi misolida. *Ilm-fan yangiliklari konferensiyasi*, Andijon, 2026-yil iyun. <https://e-conference.uz/index.php/ilm-fan/article/view/4598/4212>
9. Sobirov, A. A. Sanoat klasterlari — sanoat salohiyatini oshirishning strategik yo'nalishi sifatida. *Marketing: ilmiy, amaliy va ommabop jurnal*, 2025, № 3, 549-b. <https://marketingjournal.uz/index.php/mj/article/view/468>
10. Sulaymonov, Sh., Isroilova, S. Urgut tumani iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida erkin iqtisodiy zonasining ahamiyati. *Modern Science and Research*, 2025, Vol. 4, No. 7. <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/126560>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>